

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/08.05.2024.I.06.05 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI**

**QODIROV SARDORBЕК ISROILJON O‘G‘LI**

**IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA  
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING  
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARI**

**08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”**

**08.00.16 - “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”**

**IQTISODIYOT fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on economical  
sciences**

**Qodirov Sardorbek Isroiljon o'g'li**

Iqtisodiyotni raqamli transformatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarini  
rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....3

**Кодиров Сардорбек Исроилжон угли**

Организационно-экономические механизмы развития промышленных  
предприятий в условиях цифровой трансформации экономики.....27

**Kodirov Sardorbek Isroiljon ugli**

Organizational and economic mechanisms of development of industrial enterprises  
in the conditions of digital transformation of the economy.....51

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works ..... 56

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/08.05.2024.I.06.05  
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDA BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA POLITEKNIKA INSTITUTI**

**QODIROV SARDORBЕК ISROILJON O‘G‘LI**

**IQTISODIYOTNI RAQAMLI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA  
SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHNING  
TASHKILY-IQTISODIY MEXANIZMLARI**

**08.00.03 – “Sanoat iqtisodiyoti”  
08.00.16 – “Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya”**

**IQTISODIYOT fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2024**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Iqt1538 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona politexnika institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.ferpi.uz](http://www.ferpi.uz)) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Muminova Elnoraxon Abdukarimovna**  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:** **Qo'chqorov Toxir Safarovich**  
Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xakimov Ziyodulla Axmadovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** Namangan muhandislik-qurilish instituti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona politexnika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/08.05.2024.I.06.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2024-yil "21" 12 kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 150107, Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86-uy. Tel.: 8(373) 241-12-06, faks: 8(373) 241-12-06, e-mail: ferpi\_info@edu.uz.

Dissertatsiya bilan Farg'ona politexnika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (27L raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 150107, Farg'ona shahri, Farg'ona ko'chasi, 86-uy. Tel.: 8(373) 241-12-06, faks: 8(373) 241-12-06, e-mail: ferpi\_info@edu.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil "12" 12 kuni tarqatildi.  
(2024 yil "12" 12 dagi 27L raqamli reestr bayonnomasi).



**I.J.Jaxongirov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
Iqtisodiyot fanlari doktori, (DSc)

**I.A.Toshpulatov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
Iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**J.X.Kambarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi,  
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),  
dotsent

## KIRISH (dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahonda globallashtirish sharoitida iqtisodiy beqarorlikni kamaytirish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash, raqobatbardosh tovarlar ko'lamini kengaytirish, sanoat korxonalarining innovatsion faolligini oshirish, jumladan, energiya tejamkor, ekologik toza qurilish materiallari ishlab chiqarishda raqamli texnologiyalarni qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jahon bankining ma'lumotlariga ko'ra oxirgi o'n yilda raqamli iqtisodiyot dunyo YaIMning o'sishiga nisbatan 2,5 barobarga tezlashib uning 15 foizini ta'minlamoqda<sup>1</sup>. 2018-yilda 13,5 trillion dollar nominal yalpi ichki mahsulot raqamli transformatsiyalashuv jarayonlarini amalga oshirgan korxonalar zimmasiga to'g'ri kelgan bo'lib, mazkur ko'rsatkich 2023-yil oxiriga kelib 53,3 trillion dollarni tashkil etishi "Statista" xalqaro agentligi tomonidan prognoz qilinmoqda<sup>2</sup>. "UNIDO sanoatni rivojlanish bo'yicha birlashgan millatlar tashkiloti hisobotiga ko'ra sanoat sohasida transformatsion o'zgarishlarni amalga oshirgan, ishlab chiqarishda ilg'or raqamli texnologiyalardan foydalangan korxonalarining 77 foizida tashkiliy o'zgarishlar, 40 foizida yangi turdagi maxsulotlarni ishlab chiqarish, 33 foizida yangi jihozlar bilan ta'minlash, 29 foizida esa chiqindilarni qayta ishlashga erishilgan"<sup>3</sup>.

Hozirda sanoat korxonalarining transformatsiyalashuv jarayonlarida raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali mahsulot tannarxini optimallashtirish, inson faktorini cheklash va raqamlashtirish tizimini takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ilmiy ishlar olib borilmoqda. Qurilish materiallari sanoatining iqtisodiyotga ta'sirini baholash, raqamlashuv jarayonlariga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, sohaga investitsiyalarni keng joriy qilish va hududlarda xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish masalalari dolzarb hisoblanadi. Ushbu yondashuv qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni samarali qo'llash mexanizmlarini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlardan biridir. Bundan tashqari, bu jarayonlar innovatsion yondashuvlar va ishlanmalarni hayotga tatbiq etish imkoniyatini kengaytiradi. Raqamlashtirish va avtomatlashtirish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini samaraliroq boshqarish va resurslardan oqilona foydalanish mumkin bo'ladi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarni qo'llash orqali yangi texnologiyalarni joriy qilish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, axborot texnologiyalari orqali ma'lumotlarni tahlil qilish imkoniyatlari kengayadi va o'z navbatida qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan siyosatni davom ettirish maqsadida 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish, jumladan, qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini 2 baravarga oshirish ko'zda tutilgan"<sup>4</sup>.

---

<sup>1</sup> <https://www.weforum.org/>

<sup>2</sup> <https://www.statista.com/>

<sup>3</sup> <https://www.unido.org/>

<sup>4</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, [www.lex.uz](http://www.lex.uz)

2022-yil yakunlariga ko'ra, yalpi ichki mahsulot hajmi 2021-yilga nisbatan 5,7 foizga, iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri bo'lgan qurilish sohasi mos ravishda 6,6 foizga o'sgan. Jumladan, 2022-yilda qurilish materiallari sohasida ishlab chiqarish hajmi real o'sishi 5 foizni tashkil etgan bo'lib, 28 trln so'mdan ortiq qurilish materiallari ishlab chiqarilgan. Qurilish materiallari ishlab chiqarish sohasiga yuqori texnologiyalarni joriy etish hamda mavjud xom ashyo bazasidan oqilona foydalanish maqsadida raqamli transformatsiyaning muvaffaqiyatli joriy etilishi korxonalar va mijozlarning integratsiyalashuviga, operatsion samaradorlikni oshirishga hamda korxonalarining bozorda raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi. Hozirgi kunda mamlakatimizda qurilish materiallari sanoati korxonalarini raqamli transformatsiyalash korxonalar ta'minotining barcha bosqichlarini avtomatlashtirish va boshqarishni ta'minlash, shuningdek, bu orqali logistika va xarid xarajatlarini qisqartirish, zamonaviy axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlarni joriy etish hisobiga mahsulotlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, ularning tannarxini va ishlab chiqarishdagi to'xtalishlar darajasini kamaytirish, ish joylarini bosqichma-bosqich avtomatlashtirish va mijozlarga xizmat ko'rsatishni yaxshilash, buyurtmachilar bilan o'zaro munosabat mexanizmlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 24-yanvardagi PQ-99-son "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4198-son "Qurilish materiallari sanoatini tubdan takomillashtirish va kompleks rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2021-yil 31-avgustdagi PQ-5239-son "Qurilish materiallari sanoatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2019-yil 23-maydagi PQ-4335-son "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018-yil 4-maydagi PQ-3696-son "Ichki bozorni sement bilan barqaror ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2018-yil 3-iyuldagi PQ-3832-son "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'nalishlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori va mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy hamda madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Iqtisodiyotni raqamli transformatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari xorijlik olimlar N.Rakesh, J.Wind,

D.C.Pigosso, F.Li, M.Fischer, R.K.Rainer, G.Westerman, D.Romero, I.C.Melo<sup>5</sup> va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

MDH olimlaridan ushbu sohada L.G.Meknik, N.B.Morozova, V.I.Panin, G.G.Xuzina, V.Yu.Anisimova, A.D.Artyuxin, O.S.Tropolyyva, A.V.Vtornikov, M.F.Menyayev<sup>6</sup> va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borganlar.

Sanoat sohasidagi qurilish materiallari korxonalarini rivojlantirish, transformasiyalashuv jarayonlarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning ayrim nazariy va amaliy jihatlari respublikamiz iqtisodchi olimlari, S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov, G.R.Boltaboyeva, B.A.Begalov, A.J.Avazov, E.B.Iskandarov, F.A.Matchanova, S.A.Nabiyeva, A.Suyunov, E.H.Mahmudov, Sh.K.Kurbaniyazov, M.T.Butaboyev, J.M.Isayev kabilarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan<sup>7</sup>.

---

<sup>5</sup>Rakesh, N., & Wind, J. (2020). Transformation in Times of Crisis: Eight Principles for Creating Opportunities and Value in the Post-Pandemic World. Notion Press.; Pigosso, D. C., & McAloone, T. C. (2021). Making the transition to a circular economy within manufacturing companies: The development and implementation of a self-assessment readiness tool. *Sustainable Production and Consumption*, 28, 346-358.; Li, F. (2020). The digital transformation of business models in the creative industries: A holistic framework and emerging trends. *Technovation*, 92, 102012.; Fischer, M., Imgrund, F., Janiesch, C., & Winkelmann, A. (2020). Strategy archetypes for digital transformation: Defining meta objectives using business process management. *Information & Management*, 57(5), 103262.; Rainer, R. K., & Prince, B. (2022). Introduction to information systems: Supporting and transforming business. John Wiley & Sons.; Westerman, G., Bonnet, D., & McAfee, A. (2014). Leading digital: Turning technology into business transformation. Harvard Business Press.; Romero, D., & Vernadat, F. (2016). Enterprise information systems state of the art: Past, present and future trends. *Computers in Industry*, 79, 3-13.; Melo, I. C., Queiroz, G. A., Junior, P. N. A., de Sousa, T. B., Yushimito, W., & Pereira, J. (2023). Sustainable digital transformation in small and medium enterprises (SMEs): A review on performance. *Heliyon*.

<sup>6</sup> Мельник, Л. Г., Кубатко, А. В., Бурлакова, И. М., Васильева, Т. А., Гавриленко, А. Л., Дегтярева, И. Б., ... & Кубатко, А. В. (2017). Экономика развития.; Морозова, Н. В., Васильева, И. А., & Евсеев, А. С. (2020). Трансформационные изменения промышленности чувашской республики на современном этапе. Исторический опыт нациестроительства и развития национальной государственности чувашского народа (pp. 617-627).; Панин, В. И. (2022). Организационные изменения в структурах управления компаний строительной отрасли. Управление персоналом и интеллектуальными ресурсами в России, 11(6), 22-25.; Хузина, Г.Г. (2010). Сущность трансформационного процесса в экономической системе. Проблемы современной экономики, (4), 61-65.; Анисимова, В.Ю. (2022). Трансформационные процессы коммерциализации инноваций промышленных предприятий на современном этапе. Стратегии и механизмы регионального развития: сб. материалов Всерос. науч.-практ. конф., г. Самара (Vol. 17, pp. 8-14).; Артюхин, А.Д., & Гатиятулин, Ш. Н. (2020). Влияние цифровизации на обеспечение экономической безопасности хозяйствующего субъекта. В сборнике: Молодая наука-2020. Сборник трудов VII Всероссийской студенческой научно-практической конференции. Отв. редактор СА Забелина (pp. 401-413).; Трополева, О.С. (2021). Влияние мировой экономики на развитие строительной отрасли в России. Инновации. Наука. Образование, (25), 940-944.; Вторников, А. В. (2021). Иерархический подход к цифровой трансформации инвестиционно-строительной сферы. Организатор производства, 29(3), 34-42. Меньяев, М. Ф. Цифровая экономика предприятия : учебник / М.Ф. Меньяев. — Москва : ИНФРА-М, 2023. — 369 с. — (Высшее образование: Бакалавриат). — DOI 10.12737/1045031. - ISBN 978-5-16-015656-9.

<sup>7</sup> S.S.Gulyamov, R.H.Ayubov, O.M.Abdullayev, G.R.Baltabayeva: Raqamli iqtisodiyotda blokcheyn texnologiyalar; –T.: “Iqtisod-Moliya”, 2019; R.H. Ayupov, G.R. Boltaboeva. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik.T.: TMI, 2020; Begalov B.A. Axborot kumunikatsiyalar bozorining shakllanish va rivojlanish tendentsiyalarini ekonometrik modellash. Iqtisod fanlari doktori ilmiy darsligi asosida oliy oquv uchun ezilgan dissertatsiya avtoreferati. – T.: 2001.; Avazov A.J. Sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillash. Iqtisodiy fanlari b uyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: 2021.; Iskandarov E.B. Uzbekiston qurilish sanoati korxonalarida barqaror innovatsion rivojlanishni ta'minlash. Iqtisodiy fanlari b uyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: 2022.; Matchanova F.A. Axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishning bazor usullari. Iqtisodiy fanlari b uyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – T.: 2022.; Nabiyeva S.A. Sanoat korxonalarida innovatsion salohiyatni rivojlantirish mexanizmlarini takomillash. (Muborak neft va gaz kazib chikarish bozoriga korxonalarini misolida). Avtoreferat dissertatsiyasi doktora filosofiyasi bo'yicha iqtisodiy fanlar (PhD). TGTU, – T.: 2022.; Suyunov A. Modernizatsiya ekonomikasi kapitalni qurilishni asosida innovatsion rivojlantirish mexanizmlarini takomillash. T.: «Fan va texnologiya», 2010.-164 s.; Mahmudov E.X.

**Dissertatsiya tadqiqotining oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona politexnika instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ITD-3 raqamli "Ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va modernizatsiyalash sharoitida korxonalarining raqobatbardoshligini oshirishni tadqiq etish, boshqarishning samarador uslub va texnologiyalarini yaratish hamda takomillashtirish" mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** iqtisodiyotni raqamli transformatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarini tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish va sohani samarali rivojlantirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:**

qurilish materiallari sanoati tarmog'ining rivojlanishi va tarmoq korxonalarida faoliyatni tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish;

iqtisodiyotdagi raqamli o'zgarishlar sharoitida sanoat korxonalarini rivojlantirishning mohiyati va o'ziga hos xususiyatlarini tatbiq etish;

raqamli transformatsiyalashuv sharoitida sanoat korxonalarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslarini o'rganish;

mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot hamda qurilish sanoatining rivojlanish holati va o'zgarish tendensiyalarini tahlil qilish;

qurilish materiallari sanoati korxonalarini raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini baholash uslubiyotini takomillashtirish;

qurilish materiallari sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishda mavjud muammolarni aniqlash va ularning ta'sir darajasini baholash;

qurilish sanoati korxonalarini faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

qurilish materiallari sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligini oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

qurilish materiallari sanoati korxonalarini faoliyati samaradorligini ko'p omilli bog'lanishlar asosida prognozlash parametrlarini ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida Farg'ona viloyatida qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarini tanlab olingan.

**Tadqiqotning predmeti** bo'lib qurilish sanoati korxonalarida transformatsiyalashuv jarayonlari bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlari majmui hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari sifatida** ilmiy abstraksiya, tizimli yondashuv, statistik kuzatish, guruhlash, SWOT tahlili, korrelyatsion-regression tahlil va ekspert baholash kabi usullaridan foydalanilgan.

---

Промышленность Узбекистана: экономика, размещения, приоритеты развития (вопросы теории и практики) Ташкент: Иктисодиет, 2013. 131 с/; Курбаниязов Ш.К. Производство строительных материалов на современном этапе экономического развития Узбекистана. //Biznes-эксперт, 2017 йил, №11(119); Butaboyev M.T., Kambarov J.X, Raqamli iqtisodiyot: darslik/ Farg'ona, AL-FERGANUS, 2023. Isayev J.M. Sanoat tarmog'ini rivojlanishining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish (qurilish materiallari sanoati misolida). Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati – F.: 2023

### **Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:**

qurilish materiallari sanoati korxonalarining raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini baholash mezonlari “boshqaruv jarayoni”, “ishlab chiqarish jarayoni”, “marketing”, “ijtimoiy muhit” ko‘rsatkichlari asosida takomillashtirilgan;

qurilish materiallari korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi “dastlabki raqamlashtirish”, “vertikal integratsiya”, “gorizontal integratsiya”, “raqamli faoliyat” darajalari orqali takomillashtirilgan;

qurilish materiallari korxonalarining transformatsiyalashuv jarayonlariga moslashuvchanligini oshirish maqsadida iqtisodiy samaradorlikning yuqori natijasini ta’minlovchi raqamli transformatsiyani amalga oshirish ssenariylari ishlab chiqilgan;

amalga oshirilgan qurilish ishlari, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari, asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar, faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni asosida 2024-2028-yillarda ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan qurilish materiallari hajmining ekonometrik modellari va prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqilgan.

### **Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:**

qurilish materiallari sanoati korxonalarining raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini baholash mezonlarini takomillashtirish natijasida sanoat korxonalarida transformatsion jarayonlarni strategik rejalashtirishni optimallashtirishga erishilgan;

qurilish materiallari sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish natijasida sanoat korxonalarida raqamli transformatsiyani amalga oshirishda jarayonlar ketma-ketligini ta’minlash imkonini bergan;

qurilish materiallari korxonalarining transformatsiyalashuv jarayonlariga moslashuvchanligini oshirish maqsadida taklif qilingan ssenariylar sanoat korxonalarida ularning moliyaviy holati, iqtisodiy salohiyati, kadrlar ta’minotini o‘z ichiga olgan transformatsion strategiyani shakllantirishga xizmat qilgan;

ishlab chiqarilishi mumkin bo‘lgan qurilish materiallari hajmining ekonometrik modellari yordamida Farg‘ona viloyatida faoliyat olib boruvchi qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishining 2024-2028-yillarga mo‘ljallangan prognoz parametrlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqotda qo‘llanilgan metodologik yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi axborotlar bazasining rasmiy manbalaridan, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi “O‘zqurilishmateriallari” uyushmasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligining statistik ma’lumotlari manbalaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning amalda sinovdan o‘tkazilganligi, olingan natijalarning vakolatli davlat tuzilmalari tomonidan ma’qullanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundan iboratki, ulardan qurilish materiallari sanoati korxonalarining transformatsiyalashuv jarayonlarida raqamli texnologiyalarni joriy etish samaradorligini oshirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini

takomillashtirishga bag'ishlangan kelajakdagi maxsus ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Shuningdek, mazkur tadqiqot ishi doirasida ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy tavsiyalardan O'zbekistonda qurilish materiallarini ishlab chiqarish sanoatida ham foydalanilish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qurilish sohasi korxonalarini rivojlantirish, sohada raqamli texnologiyalarni qo'llash bo'yicha asoslangan xulosalar va tavsiyalar "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi, xususan, "Quvasoycement" AJ, "Turon eco cement group" MChJ, "Albus cement group" MChJ korxonalarining istiqbolli dastur va rejalarni ishlab chiqishda foydalanish hamda oliy ta'lim tashkilotlari tomonidan o'quv kurslari, o'quv-uslubiy majmualar, ma'ruza matnlari, amaliy mashg'ulotlar, o'quv qo'llanmalari va darsliklarni takomillashtirishda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Iqtisodiyotni raqamli transformatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida quyidagi ishlar amalga oshirildi:

qurilish materiallari sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligini "boshqaruv jarayoni", "ishlab chiqarish jarayoni", "marketing", "ijtimoiy muhit" yo'nalishlaridagi ko'rsatkichlar asosida takomillashtirish baholash mezonlari bo'yicha berilgan amaliy taklif "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi korxonalarda joriy qilingan. ("O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi 05/13-1460-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy yangilikni amaliyotga joriy etish natijasida sanoat korxonalarida transformatsion jarayonlarni strategik rejalashtirishni optimallashtirishga erishilgan;

qurilish materiallari korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi "dastlabki raqamlashtirish", "vertikal integratsiya", "gorizontal integratsiya", "raqamli faoliyat" yo'nalishlari orqali takomillashtirish bo'yicha berilgan amaliy taklif "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi korxonalarda joriy qilingan. ("O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi 05/13-1460-sonli ma'lumotnomasi). Natijada sanoat korxonalarida raqamli transformatsiyani amalga oshirishda jarayonlar ketma-ketligini ta'minlash imkoni yaratilgan;

qurilish materiallari korxonalarining transformatsiyalashuv jarayonlariga moslashuvchanligini oshirish maqsadida iqtisodiy samaradorlikning yuqori natijasini ta'minlovchi raqamli transformatsiyani amalga oshirish ssenariylari "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi tarkibidagi korxonalarda joriy qilingan. ("O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi 05/13-1460-sonli ma'lumotnomasi). Natijada sanoat korxonalarida ularning moliyaviy holati, iqtisodiy salohiyati, kadrlar ta'minotini o'z ichiga olgan transformatsion strategiyani shakllantirishga xizmat qilgan;

amalga oshirilgan qurilish ishlari, ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari, asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, faoliyat ko'rsatayotgan qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar soni asosida 2024-2028-yillarda ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan qurilish materiallari hajmining ekonometrik modellari

va prognoz ko'rsatkichlari "O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi faoliyatiga tatbiq qilingan. ("O'zsanoatqurilishmateriallari" uyushmasi 05/13-1460-sonli ma'lumotnomasi). Buning natijasida, Farg'ona viloyatida faoliyat olib boruvchi qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmi o'zgarishining 2024-2028-yillarga mo'ljallangan prognoz parametrlari aniqlangan.

**Tadqiqot natijalarining abrobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 9 ta, jumladan, 4 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda jami 8 ta ilmiy maqola nashr etilgan. Bu jurnallarni 5 tasi respublika, 3 tasi xorijiy ilmiy jurnal hisoblanadi.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiyaning tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 141 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari hamda obykti va predmeti shakllantirilgan, Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Sanoat korxonalarini rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning ilmiy-nazariy asoslari"** deb nomlangan birinchi bobida qurilish materiallari sanoati tarmog'ining rivojlanishi va tarmoq korxonalarida faoliyatni tashkil etishning nazariy uslubiy asoslari, iqtisodiyotdagi raqamli o'zgarishlar sharoitida sanoat korxonalarini rivojlantirishning mohiyati va o'ziga hos xususiyatlari, hamda raqamli transformatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari yoritilgan.


Bugungi kunda jahonning barcha mamlakatlarida moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining rivojlanishida ishlab chiqarish korxonalarini zaruriy resurs joylashgan va iste'molchilarga yetkazib berish qulay bo'lgan hududlarda shu bilan birga faoliyatni zaruriy tuzilmalar bilan birgalikda kompleks holatda tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Iqtisodiy qonunlar sanoat tarmoqlari va ularning faoliyati davomida mahsulot yaratish uchun asosiy bo'g'in sifatida qaralib, ishlab chiqarish korxonalarini zaruriy xom ashyo va resurslar joylashgan hamda iste'molchilarga yetkazishda qulay hududlarda tashkil etish hamda raqamli iqtisodiyot sharoitida sanoat tarmogida faoliyat yuritayotgan qurilish materiallari korxonalarining transformatsiyalashuv jarayonlarida faoliyatni zaruriy tuzilmalar, raqamli texnologiyalarni qo'llash bilan birgalikda kompleks holatda olib borish muhim sanalmoqda.

Xorijlik olim Kxin Xo fikriga ko'ra, "Bugungi kunda kompaniyalar raqamlashtirish jarayoniga jalb qilinishi va raqamli transformatsiyani o'z ichiga olishi kerak, chunki raqamli texnologiya biznesda muhim yangilanishlarni kiritishi mumkin, masalan, mijozlar tajribasi va ishtirokini oshirish, biznes operatsiyalarini optimallashtirish va hatto raqamlashtirish mutlaqo yangi biznes modellarini yaratishga yordam beradi"<sup>8</sup>. A.Uillyemsning fikricha "raqamli texnologiyalarning paydo bo'lishi kompaniyalarning o'z bizneslarini yuritish uslubini tubdan o'zgartirdi va yangi bozorlarni rivojlantirishga hissa qo'shadi"<sup>9</sup>.

Muallifning fikricha, ushbu tariflar raqamli transformatsiya jarayonlari biznes operatsiyalarini optimallashtirish va yangi biznes modellarini yaratishga taalluqli bo'lib, bevosita muammoning mohiyatini to'liq ochib bera olmaydi.

Raqamli transformatsiya - bu barcha darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyati kontseptsiyasi va formatini raqamlashtirish orqali barcha resurslarni raqamli formatga o'tkazish, joriy etish va shakllantirish jarayonidir. Raqamli texnologiyalar, raqamlashtirish - raqamli makonning dinamik sharoitida barqaror va uzoq muddatli mavjudligiga erishish uchun raqamli texnologiyalar foydalanuvchilarining integratsiyasi va o'zaro ta'siri uchun tarmoq platformalarini yaratish. Raqamli iqtisodiyot sharoitida barqaror faoliyat ko'rsatishga intilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barcha subyektlari raqamli transformatsiya jarayonidan o'tishga majbur. Ushbu jarayonning bosqichlari sxematik tarzda 1-rasmda keltirilgan.



**1-rasm. Sanoat korxonalarida raqamli transformatsiya jarayonining bosqichlari<sup>10</sup>**

<sup>8</sup>Khin Ho, "Digital transformation of Business Models in the bank sector: a multiple case study", Johannes Kepler University Linz, october 2020 y

<sup>9</sup>Schallmo & Williams, Digital Transformation of Business Models-Best Practices, Enablers and Roadmap, July 2018, Conference: XXVIII ISPIM Innovation Conference – Composing the Innovation Symphony, Austria, Vienna on 18-21 June 201 At: Vienna

<sup>10</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Sanoat korxonalarining transformatsiyalashuv jarayoniga raqamli texnologiya, madaniyat, operatsiyalar, xizmatlar va yangi mahsulotlarni yaratish tamoyillarini tubdan o'zgartirishni talab qiluvchi jarayon sifatida belgilash muhim ahamiyatga ega. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va ularni ijtimoiy-iqtisodiy tizimning barcha sohalaridagi jarayonlar va ish modellarini butunlay o'zgartirish zarur. Mazkur jarayonda, ma'naviy eskirgan texnologiyalarni bosqichma-bosqich almashtirish, transformatsiya jarayonlarni tezlashtirishni qo'llab-quvvatlashi kerak bo'lgan tizimni yaratish zarurligini anglatadi.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarining transformatsiyalashuvida raqamli texnologiyalarni joriy etilishining mavjudligi va maqsadga muvofiqligi mezoniga ko'ra tasnifini ishlab chiqish kerak. Quyidagi jadvalda raqamli texnologiyalarning guruhlanishi keltirilgan.

**1-jadval**

### **Raqamli texnologiyalarning guruhlanishi<sup>11</sup>**

Guruhlarining nomlanishi	Ushbu guruhlar tavsifi
Aqlli zavod	Kiber fizik tizimlar/Markazlashtirilgan tizimlar
	Buyumlar internet/Xizmatlar interneti
	Avtomatlashtirish
	Modullashtirish
	Qo'shimcha ishlab chiqarish (3D printerlar)
	Mahsulot hayotiyiligini boshqarish (PLM)
	Robotlashtirish
	Inson-kompyuter tizimlari
Simulyatsiya va modellashtirish	Buyumlar simulyatsiyasi/ modellar simulyatsiyasi
	Qurilish ma'lumotlarini modellashtirish
	Virtual reallik/Aralash reallik
Raqamlashtirish va virtuellashtirish	Bulutli hisoblash
	Big data
	Mobil hisoblash
	Ijtimoiy media
	Axborotlarni raqamli formati


Raqamli transformatsiya korxonalarining daromadlarini va investitsion jozibadorligini yaxshilashda muhim rol o'ynadi. Yuqori texnologiyali ishlab chiqarish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish, boshqaruvda ma'lumotlar bazasidan oqilona foydalanish kabi imkoniyatlari bilan raqamli texnologiyalar har qanday korxonaga uchun ularning samaradorligiga katta ta'sir etuvchi omil hisoblanadi.

Sanoat korxonalarini raqamli transformatsiya jarayoni bir qancha o'ziga hos hususiyatlarga ega bo'lib ushbu jarayonni to'g'ri tashkil qilish, korxonaga uchun kerakli strategiyani ishlab chiqish ko'p jihatdan uning faoliyatini samarali va uzluksiz tashkillashning asosiy shartlaridan hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, sanoat korxonalarining raqamli transformatsiyasidan asosiy maqsad ularning raqobatbardoshligini, ishlab chiqarish faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish uchun shart-sharoitlarni ta'minlashdan iborat.

<sup>11</sup>Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Dissertatsiyaning “O‘zbekistonda qurilish materiallari sanoati korxonalari faoliyatining o‘zgarishlar tendentsiyalari va ularni rivojlanishiga omillar ta’sirini baholash” deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendentsiyalari va ko‘satkichlari, O‘zbekistonda qurilish sanoati bozorining rivojlanish holati va o‘zgarish tendentsiyalari tahlili, qurilish sanoati korxonalarini raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasini baholash uslubiyoti ko‘rsatib o‘tilgan.



**2-rasm. Farg‘ona viloyati qurilish tarmog‘ida yaratilgan yalpi ichki mahsulot hajmi (mlrd, so‘mda)<sup>12</sup>**

Qurilish materiallari sanoatida iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va tarmoqni jadal rivojlantirish, yangi zamonaviy qurilish materiallari, konstruktsiyalar va buyumlar ishlab chiqarishni ko‘paytirish hamda uning turlarini kengaytirish, kadrlar tayyorlash, maktab ta’limi va uy-joy qurilishini rivojlantirish umummilliy dasturlarini amalga oshirishni hisobga olgan holda ichki bozorning qurilish materiallariga bo‘lgan talab-ehtiyoji qondirilishini ta’minlash, shuningdek, eksport salohiyatini oshirish iqtisodiy islohotlarning ustuvor vazifalaridan biriga aylanib bormoqda. Mamlakatimizda qurilish tarmog‘ida yaratilgan yalpi ichki mahsulot hajming yildan-yilga o‘sib borayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Buni yuqoridagi 2-rasm ma’lumotlari asosida tahlil qilamiz.


Amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning amaliy natijasi sifatida statistik ma’lumotlarga e’tibor qaratar ekanmiz, 2023-yilda Farg‘ona viloyatida jami 9917,1 mlrd. so‘mlik qurilish sohasida qo‘shimcha qiymat yaratilgan bo‘lib, o‘shir sur’ati 2022-yil (8646 mlrd. so‘m)ga nisbatan 114,7% ni tashkil etdi (2-rasm).

Qurilish materiallari sanoatini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlashni tashkil etishni rag‘batlantirish, ilg‘or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini diversifikatsiya qilish va eksport hajmini kengaytirish, tarmoqqa investitsiyalarni jalb qilish, shuningdek, raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport

<sup>12</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

qilish bo'yicha barqaror o'sish suratlari ta'minlash, shuningdek, korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilashga qaratilgan qurilish materiallari sanoatidagi tarkibiy o'zgartirishlarni yanada chuqurlashtirish hamda belgilangan vazifalarni izchillik bilan amalga oshirish maqsadida xukumatimiz tomonidan bir qator qaror va farmonlar qabul qilindi.

Yuqorida keltirilgan qarorlarda qurilish materiallari sanoatini innovatsion rivojlantirish, talab yuqori bo'lgan sifatli mahsulot turlarini kengaytirish, shuningdek, tarmoqning eksport salohiyatini oshirishga doir ilmiy asoslangan takliflarni ishlab chiqish, ilmiy tadqiqotlar va innovatsion ishlanmalar natijalarini yuqori qo'shilgan qiymatli qurilish materiallari ishlab chiqarishga joriy etilishini ta'minlash, qurilish materiallari sanoatiga innovatsiyalarni joriy qilish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalar va texnologik jarayonlarni har tomonlama o'rganish kabi vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda mamlakatda raqamli iqtisodiyotning ko'lami, mavjud infrastrukturani takomillashtirish bilan bir vaqtda qurilish tarmog'ida raqamli texnologiyalardan keng foydalanish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.



**3-rasm. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektorida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatning O'zbekiston Respublikasi YaIM dagi ulushi(foizda)<sup>13</sup>**


Raqamli iqtisodiyot yalpi ichki mahsulotga ham bevosita ham bilvosita o'z ta'sirini o'tkazmay qolayotgani yo'q. Ammo rivojlangan davlatlardan farqli o'laroq raqamli iqtisodiyotning mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 3% atrofida mo'tadil saqlanib turibdi (3-rasm).

Mamlakatimizda raqamli iqtisodiyot sohasi sifatidagi qiymat asosan elektron tijorat, axborot kommunikatsion texnologiyalarga xizmat ko'rsatish va ushbu texnologiyalarning savdosi hisobiga yuzaga kelgan. Mamlakatimizda ushbu sohada kuzatilayotgan 2 foizdan yuqori ko'rsatkich bir qator rivojlangan davlatlar, misol uchun Buyuk Britaniya 12,4%, Janubiy Koreya 8%, Xitoy 6,9%, Hindiston 5,6%,

<sup>13</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Yaponiya 5,6% bilan solishtirganda, hamda, ularning yalpi ichki mahsuloti mamlakatimiznikidan bir necha barobar kattaligini e'tiborga olgan holatda juda ham past ko'rsatkich ekanligini aniqlashimiz mumkin.

Qurilish ishlari hajmining mamlakatimiz iqtisodiyotida naqadar muhim ahamiyatga ega ekanligini tahlil qilar ekanmiz, bu borada ushbu ishlarni davomli rivojlanishini ta'minlash uchun asosiy hom ashyo bo'lgan qurilish materiallari ishlab chiqarish ham muhim ahamiyat kasb etadi.



**4-rasm. Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan qurilish materiallari qiymati (mlrd, so'mda)<sup>14</sup>**

Farg'ona viloyatida ishlab chiqarilgan qurilish materiallari qiymatini tahlil qiladigan bo'lsak, 2023-yil yakunlariga ko'ra 4545,3 mlrd so'mlik qurilish materiallari ishlab chiqarilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2022-yil 3635,1 mlrd. so'mdan 125,03 foizga yuqoriligini ko'rishimiz mumkin.

Qurilish materiallari sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligi ko'plab omillarga, xususan, boshqaruv, ishlab chiqarish, marketing, ijtimoiy muhitni yaxshilash kabi dolzarb masalalarga bog'liq hisoblanadi. Mazkur korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish, maxsulot sifatini yaxshilash, boshqaruv tizimini takomillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi samaradorligini baholash mezonlarini ishlab chiqish va ularni qurilish materiallari sanoati korxonalariga tatbiq etish tezkor ma'lumot va axborotlar almashinuvi, barcha bo'g'inlardagi muammolarni oldindan kuzatish hamda bartaraf

<sup>14</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

etish, bozor holatini o'rganish va shulardan kelib chiqqan holda tezkor qarorlar qabul qilish, taktika va strategiyalarni ishlab chiqish imkonini yaratadi (2-jadval).

2-jadval

**Raqamli texnologiyalardan foydalanish samaradorligi darajasini baholash mezonlari<sup>15</sup>**

Raqamli texnologiyalardan foydalanish ko'rsatkichi	Korxonalar				Maksimal baho
	K <sub>1</sub>	K <sub>2</sub>	K <sub>3</sub>	K <sub>4</sub>	
<b>1</b>	<b>2</b>	<b>3</b>	<b>4</b>	<b>5</b>	<b>6</b>
<b>1.Boshqaruv jarayoni</b>	<b>14</b>	<b>13</b>	<b>17</b>	<b>16</b>	<b>25</b>
1.1.Elektron hujjat almashish tizimining mavjudligi	2	2	2	3	5
1.2.Xodimlar ish vaqtini avtomatik nazorat qilish	2	2	3	2	5
1.3. Faoliyat bo'yicha e'tiroz va takliflarni online qabul qilish imkoniyati	3	2	4	3	5
1.4. Korxonaga strategiyasini amalga oshirilishini virtual nazorat qilish	3	3	4	4	5
1.5. Buxgalteriya faoliyatining avtomatlashtirilganligi (1C, 1UZ)	4	4	4	4	5
<b>2.Ishlab chiqarish jarayoni</b>	<b>13</b>	<b>13</b>	<b>17</b>	<b>15</b>	<b>25</b>
2.1. Xom ashyo sotib olish uchun online platformalardan foydalanish	3	3	3	3	5
2.2.Mahsulot ishlab chiqarish jarayonini virtual nazorat qilish	2	2	3	3	5
2.3.ERP tizimini mavjudligi	3	3	4	3	5
2.4.Jarayonda yuzaga kelgan muammolarni aniqlovchi dasturiy ta'minot	2	2	3	3	5
2.5.Asosiy vositalarning avtomatlashish darajasi	3	3	4	3	5
<b>3.Marketing</b>	<b>18</b>	<b>13</b>	<b>21</b>	<b>20</b>	<b>30</b>
3.1 Korxonalarining web sahifasi mavjudligi	3	2	4	4	5
3.2 Ijtimoiy taqmolarda faollik darajasi	2	1	4	4	5
3.3 Mahsulotlarni birja orqali sotuv darajasi	4	2	3	3	5
3.4 Mahsulotlarni e-commerce (electron savdo) orqali sotish imkoniyati	3	3	3	3	5
3.5 Mahsulot sifati yuzasidan iste'molchilar fikrini o'rganish	3	3	3	3	5
3.6 Yetkazib berish tizimlari nazorati.	3	2	4	3	5
<b>4.Ijtimoiy muhit</b>	<b>16</b>	<b>12</b>	<b>13</b>	<b>13</b>	<b>20</b>
4.1. Tashkilotda hodimlar yuzasidan to'laqonli ijtimoiy ma'lumotlarning mavjudligi.	4	3	4	3	5
4.2. Xodimlar samaradorligi yuzasidan KPI tizimining mavjudligi	3	3	3	4	5
4.3. Xodimlarni raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi	3	3	3	3	5
4.4. Xodimlar uchun raqamli texnologiyalardan foydalanish yuzasidan treninglar mavjudligi	3	3	3	3	5
<b>Jami:</b>	<b>61</b>	<b>51</b>	<b>68</b>	<b>61</b>	<b>100</b>

<sup>15</sup>Korxonalar ma'lumotlari asosida ekspertlar xulosasiga ko'ra muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

K1 - “Quvasoycement” AJ

K2 - “Turon eco cement group” MCHJ QK

K3 - “Albus cement group” MCHJ

K4 - “Moderna cement industries” MCHJ QK

Tadqiqot ishida raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi samaradorligini baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Mezonga ko‘ra qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish jarayoni, marketing faoliyatini takomillashtirish, ijtimoiy muhitini yaxshilash ko‘rsatkichlarini baholash uslubiyoti ifodalangan. Korxonalarda raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi samaradorligini baholash metodologiyasida qo‘llaniladigan yondashuv sanoat korxonalarining transformatsiyalashuv jarayonlariga moslashuvchanligini ko‘rib chiqishni o‘z ichiga oladi. Komponentlarning har biri, o‘z navbatida, raqamli texnologiyalardan foydalanish amaliyotiga mos keladigan mezonlar majmuini o‘z ichiga oladi.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini oshirishda qurilish sohasini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini uning yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasi o‘laroq ko‘rishimiz mumkin. Qurilish tarmog‘ini asosiy poydevori sanalgan qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish, sohada raqamli texnologiyalardan foydalanishni jadallashtirish, bu sohada faoliyat olib borayotgan korxonalar faoliyatini raqamli texnologiyalardan foydalangan holda transformatsiya qilish hozirda dolzabr masalalardan hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Iqtisodiyotni raqamli transformatsiyalash sharoitida sanoat korxonalarini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish”** deb nomlangan uchinchi bobida mamlakatimizda qurilish materiallari sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishda mavjud muammolar va ularni baholash, qurilish sanoati korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi, qurilish sanoati korxonalarini faoliyatini ko‘p omilli bog‘lanishlar asosida prognozlash parametrlarini baholash bo‘yicha takliflar asoslangan.

